


**“O‘ZBEKINVEST” EKSPORT-IMPORT SUG‘URTA KOMPANIYASI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**“O‘ZBEKINVEST” EKSPORT-IMPORT SUG‘URTA
KOMPANIYASI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT
VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH
DEPARTAMENTI NIZOMI**

2022 yil «28» mart

Kod: RD-GK 40-01

Toshkent sh.

 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		




**“O‘ZBEKINVEST” EKSPORT-IMPORT SUG‘URTA
KOMPANIYASI AKSIYADORLIK JAMIYATI
KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT
VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH
DEPARTAMENTI NIZOMI**

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash Departamenti (matnda "Departament") "O'zbekinvest" Eksport-Import Sug'urta Kompaniyasi Aksiyadorlik Jamiyatining (keyingi o'rinlarda "Jamiyat") tarkibiy bo'limi bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri jamiyat Bosh direktoriga bo'ysunadi.
- 1.2. Departament o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021 yil 6 sentyabrdagi 27–son buyrug'i, Jamiyat ustavi, jamiyat bo'yicha buyruq va yo'riqnomalar, shuningdek ushbu Nizom asosida amalga oshiradi.
- 1.3. Departament to'g'risidagi nizom, xodimlarning mehnat vazifalari Bosh direktor tomonidan tasdiqlanadi.

II. DEPARTAMENTNING TUZILMASI

- 2.1. Departamentga bosh menejer rahbarlik qiladi. Departamentning tuzilmasi, shtat jadvali Departament bosh menejerining tavsiyasiga binoan Jamiyatning Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.
- 2.2. Departament o'z faoliyatida Jamiyatning Bosh direktoriga bevosita bo'ysunadi.
- 2.3. Departament bosh menejeri Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.
- 2.4. Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.
- 2.5. Bunda, Agentlikka Jamiyat bosh direktorining Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.
- 2.6. Ushbu taqdimnomada Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko'rsatiladi. Taqdimnomaga Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etish sabablari va


 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, Departament bosh menejerining arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

- 2.7. 2.7.** Quyidagilar Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:
- 2.8.** - Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;
- 2.9.** - Departament bosh menejerining zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.
- 2.10. 2.8.** Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan ko'rib chiqilib, Jamiyatga Departament bosh menejerini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat taqdim etiladi.

III. DEPARTAMENTNING MAQSADI, VAZIFA VA FUNKSIYALARI

- 3.1.** Departamentning asosiy maqsadi Jamiyatda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Jamiyat tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.
- 3.2. Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari hisoblanadi:**
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;
 - Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;
 - Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;
 - korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va Jamiyatlari bilan hamkorlikni olib borish.
- 3.3. Departament o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**
- a) Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:**
- Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;
 - Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat bosh direktoriga kiritadi;
 - Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

- Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazardan baholaydi va xulosalar beradi;
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi..

b) Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

- Jamiyat tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy xuquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

- maxsus axborot aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf xatarlar va xuquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

- Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

- Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

- korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Jamiyat xodimlariga yetkazadi;


- Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarning mutanosibligi va yetarililigini nazorat qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni taxlil qiladi;

- har chorakda va Jamiyat bosh direktori talabiga ko'ra Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida ma'lumot kiritib boradi;

v) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:


 O'ZBEKINVEST <small>UGURTA NOMPANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;
- Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;
- Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;
- o'quv rejaga muvofiq Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;
- Jamiyat tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;
- Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;
- Jamiyat tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Jamiyatning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;
- Jamiyat tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;
- o'dob-ahloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;
- amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;
- Jamiyat tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma(shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;
- Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

g) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va Jamiyatlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;


- qonunchilik hujjatlari bilan Jamiyat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		


- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarini jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
 - korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.
 - Departament qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.
- 3.4. Departamentga va uning bosh menejeriga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.**

DEPARTAMENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.5.** Departament o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:
- o'zi faoliyat yuritayotgan Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;
 - xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;
 - Jamiyat tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;
 - Jamiyat bosh direktoriyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
 - o'z faoliyati doirasida Jamiyat tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;
 - Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;
 - tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.
 - Departament qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 3.6.** Departament o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:
- o'zi faoliyat yuritayotgan Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;
 - xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;
 - Jamiyat tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;
 - Jamiyat bosh direktoriyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
 - o'z faoliyati doirasida Jamiyat tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;
 - Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;
 - tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.
- Departament qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.


 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

- 3.7.** Departament o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:
- o'zi faoliyat yuritayotgan Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;
 - xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;
 - Jamiyat tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;
 - Jamiyat bosh direktoriyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
 - o'z faoliyati doirasida Jamiyat tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;
 - Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;
 - tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.
- Departament qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 3.8.** Departament bosh menejeri korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar Jamiyat yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.
- 3.9.** Departament faoliyatining natijadorligi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.
- 3.10.** Departament faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari Jamiyatning birinchi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.
- 3.11.** Departament faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.
- 3.12.** O'ziga yuklangan vazifalarni to'g'ri va samarali bajarish.
- 3.13.** O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining farmonlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, qarorlari, Hukumat buyruqlari, Vazirlar Mahkamasi rahbariyatining ko'rsatmalari, shuningdek jamiyatning amaldagi mahalliy normalari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.
- 3.14.** "O'zbekinvest" EISK AJning ish yuritish bo'yicha yo'riqnomasiga (RD-05) muvofiq ijro intizomini ta'minlash.
- 3.15.** Departament bosh menejerining javobgarlik darajasi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mehnat majburiyatlari, mehnat shartnomalari va Jamiyatning amaldagi mahalliy qoidalari bilan tartibga solinadi.

 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

IV. BOSH MENEJER


- 4.1. Departament bosh menejeri umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Departament ishlarini rejalashtiradi va tashkil qiladi hamda Departamentga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar sanaladi, ijro intizomini ta'minlaydi. Departament resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlaydi.
- 4.2. Departament vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha axborot va tahliliy ma'lumotlarni ishlab chiqadi va targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradi.
- 4.3. Departament vazifalarini bajarishida Jamiyatning hududiy filiallariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi.
- 4.4. Jamiyat bosh direktoriyati qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi, olingan natijalar yuzasidan baholashni o'tkazadi, departament faoliyatidagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha samarali choralarni ko'radi.
- 4.5. Departament ishini zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda tashkil etadi va uni takomillashtiradi.
- 4.6. Departamentda ishlarining yuritilishini tashkil qiladi.
- 4.7. Jarayonlar va funksiyalarning samaradorligini monitoring va nazoratni, shuningdek faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tuzatish va profilaktika choralarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.
- 4.8. Kompaniya balansidagi (Qodiriy ko'chasi 2-uy manzilidagi ma'muriy bino, kompaniyaning hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalari ofislari, shu jumladan ijaraga olinganlari) binolarning xavfsizligini ta'minlaydi;
- 4.9. Barcha himoya rejalarning talablarga mos keladigan himoya vositalarini ishlab chiqadi;
- 4.10. Jamiyatga kirish va chiqishni nazoratini bajarilishini ta'minlaydi;
- 4.11. Xodimlar va tashrif buyuruvchilar tomonidan xavfsizlik rejimi talablarining bajarilishini nazorat qiladi;
- 4.12. Kompaniyaning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar va ishlaridan asossiz ravishda foydalanish va kirishni oldini oladi;
- 4.13. Maxfiy sir saqlanadigan ma'lumotlarga kirishni cheklovchi mahsus ish yuritish rejimini tashkil etadi;
- 4.14. Jamiyat hududiga yoki qo'riqlanadigan ob'ektlarga kirish holatlarini tergov qilish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik o'rnatadi;
- 4.15. Maxfiy axborotni oshkor qilish, muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni yo'qotish va jamiyat xavfsizligi qoidalarini buzilishi va boshqa holatlar bo'yicha rasmiy tekshiruv ishlarini tashkil etadi;
- 4.16. Jamiyat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan huquqiy, tashkiliy, muxandislik texnik chora-tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;
- 4.17. Jamiyatga kirish va chiqishdagi yo'l qo'yilgan qoida buzilishlarini tahlil qilish va hisobini yuritadi;
- 4.18. Kompaniya xodimlarining sodiqligini tekshiradi va baholaydi;
- 4.19. Xavfsizlik masalalari bo'yicha xodimlarni o'qitish va malaka oshirish (trening)ni tashkil qiladi;
- 4.20. Jamiyat hududiga favqulotda holatlarda shoshilinch xizmatlar, o't o'chirish va tez yordam mashinalari belgilangan namunadagi ruxsatnomalar bo'lgan taqdirda to'sqinliksiz kirib-chiqish nazoratining tashkil etadi;
- 4.21. Jamiyat xodimlarining chet elga chiqishini nazorat qiladi;

 O'ZBEKINVEST <small>SUGURTA KOMPAANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

- 4.22. Jamiyat tomonidan qabul qilingan xavfsizlik qoidalarini va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash talablariga rioya etilishini doimiy nazoratini ta'minlash, belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qiladi;
- 4.23. Kompaniyada joriy etilgan SBT samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;
- 4.24. Jamiyat raxbariyatining Departament faoliyatiga oid ko'rsatma va topshiriqlarini bajaradi.
- 4.25. Xatlar, so'rovlar va boshqa hujjatlarni ko'rib chiqadi va xat mualliflariga javoblar tayyorlaydi.
- 4.26. Departament bosh menejeri o'z vazifalarini va kasbiy javobgarliklarini bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

MENEJER KATTA ASSISTENTI

- 4.27. Departament menejer katta asistenti Departamentga yuklatilgan vazifalarning bajarilishida bosh menejerga yordam beradi va topshiriqlarini bajaradi.
- 4.28. Jamiyat bosh direktorining qarorlarining bajarilishi bo'yicha ishlarni olib boradi va departament bosh menejeriga departament faoliyatidagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni kiritadi.
- 4.29. Departament vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha axborot va tahliliy ma'lumotlarni ishlab chiqadi;
- 4.30. Jamiyatning hududiy filiallari bilan doimiy aloqada bo'ladi va tegishli tartibda ularga yo'l yo'riqlar va amaliy yordam ko'rsatadi.
- 4.31. Departament ishini zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda tashkil etadi va uni takomillashtiradi.
- 4.32. Departamentda ishlarining yuritilishini tashkil qiladi.
- 4.33. Faoliyatdagi ish samaradorligini nazoratga oladi va departament faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.
- 4.34. Jamiyatga kirish va chiqishni nazorat qiladi va qoidabuzarliklar bo'lgan hollarda bu bo'yicha bosh menejerga hisobot beradi;
- 4.35. Xodimlar va tashrif buyuruvchilar tomonidan xavfsizlik rejimi talablarining bajarilishini nazorat qiladi;
- 4.36. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar va ishlaridan asossiz ravishda foydalanish holatlarini oldini oladi va ushbu holat bo'yicha jamiyat xodimlarini ogohlantirib boradi;
- 4.37. Maxfiy axborotni oshkor qilish, muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni yo'qotish va jamiyat xavfsizligi qoidalarini buzilishi va boshqa holatlar bo'yicha rasmiy tekshiruv ishlarida qatnashadi va tegishli tartibda holatga tegishli ichki hujjatlarni tayyorlaydi va tasdiqlash uchun rahbarga taqdim etadi.
- 4.38. Jamiyatga kirish va chiqishdagi yo'l qo'yilgan qoida buzilishlarini tahlil qilish va hisobini yuritadi;
- 4.39. Xavfsizlik masalalari bo'yicha xodimlarni o'qitish va malaka oshirish (trening)ni tashkil etishga doir barcha hujjatlarni yuritadi.
- 4.40. Jamiyat tomonidan chet elga chiqadigan xodimlarni ishini nazorat qilishda ishtirok etadi;
- 4.41. Jamiyat raxbariyatining Departament faoliyatiga oid ko'rsatma va topshiriqlarini bajaradi;
- 4.42. Departamentning joriy va strategik rejalarini tuzishda qatnashadi.
- 4.43. Departament faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi.

 O'ZBEKINVEST <small>EGURTA KOMPANIYASI</small>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Nizomi	RD-GK 40-01
		11-varaq 27.09.2021 y.
GK 40		

- 4.44. Ichki qonunchilik va xalqaro amaliyotda qabul qilingan standartlarni hisobga olgan holda Departamentning faoliyatini modernizatsiya qilish va yangilashda qatnashadi.
- 4.45. Jamiyat bosh direktoriyati buyruqlari, qarorlari va Departament bosh menejerining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarilishini bajarilishini ta'minlaydi.
- 4.46. Targ'ibot va tashviqot ishlarida ishtirok etadi.
- 4.47. Departament vazifalarini bajarishida Jamiyatning hududiy filiallariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishda qatnashadi.
- 4.48. Departamentning faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda qatnashadi.
- 4.49. Jarayonlar va funksiyalarning samaradorligini monitoring va nazoratni, shuningdek faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tuzatish va profilaktika choralari ishlab chiqishda qatnashadi.
- 4.50. O'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va "O'zbekinvest" EISK AJning ichki qoidalarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

V. YAKUNIY QOIDALAR

- 5.1. Ushbu Nizom, hamda unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.
- 5.2. Ushbu Nizom, hamda unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar "O'zbekinvest" EISK" AJning elektron ma'lumotlar bazasiga kiritib boriladi.

VI. HUJJATNI SAQLANISHI

- 6.1. Ushbu Nizomning asl nusxasi Jamiyat Kotibiyatida saqlanadi.

Kiritildi:

Kompaniyaning Bosh menejeri
(Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
va xavfsizlikni ta'minlash
departamenti)

 A.Yo. Abdullaev

Kelishildi:

Bosh direktorning
birinchi o'rinbosari

 R. Xalikov


Xodimlar bilan ishlash
Departamenti Bosh menejeri

 Sh. Aripxodjaeva


Strategik rivojlantirish
va sifatni boshqarish
departamenti Bosh menejeri

 A.R. Abdullaev

Yuridik departament
boshlig'i

 R. Karshibaev

Bosh direktorining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili
to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini
ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

 M.V. Shukurova